

**MAVZU: IJTIMOIIY TARMOQLARDA JURNALISTIK  
YONDASHUV**

*Muallif: Toshpo‘latova Luiza Bahodir qizi*

*Oliy ta’lim muassasasi: O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistik faoliyatning o‘ziga xos jihatlari, axborot yetkazish uslublari va auditoriya bilan muloqotda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya jarayonida jurnalistning roli, mas’uliyati hamda ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanayotgan yangi axborot madaniyati muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, jurnalistika, raqamli kommunikatsiya, axborot madaniyati, faktcheking, mediaetika.

Kirish: Bugungi globallashuv davrida ijtimoiy tarmoqlar axborot olishning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Internet orqali har bir foydalanuvchi ma’lumotni nafaqat iste’mol qiladi, balki uni yaratadi va tarqatadi. Shu sababli jurnalistikaning an’anaviy me’yorlari o‘zgarib, yangi “ijtimoiy media jurnalistikasi” shakllanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar — bu erkin fikrlar, tezkor axborot almashinuvi va jamoatchilik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot maydoni. Shu bilan birga, bu makon noto‘g‘ri axborot, manipulyatsiya va “feyk yangiliklar” xavfini ham o‘z ichiga oladi.

Asosiy qism: Ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: tezkorlik, interaktivlik, ishonchlilik va tahliliy yondashuv. Jurnalist endilikda nafaqat xabar yetkazuvchi, balki axborotni tahlil qiluvchi, tekshiruvchi va auditoriya bilan muloqot qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1. Tezkorlik. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yangilik bir necha daqiqada butun auditoriyaga tarqaladi. Shu sababli jurnalist uchun tezlik bilan bir qatorda aniqlik ham muhim. Har bir xabar tekshirilgan manbalarga asoslanishi zarur.



2. Interaktivlik. Ommaviy axborot vositalari endi biryoqlama emas, balki ikki tomonlama muloqot tizimiga aylandi. Auditoriya izohlar, fikr-mulohazalar, ovoz berishlar orqali jarayonning faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

3. Axborot sifati va etik mas'uliyat. Ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistning xatti-harakati, tili, tasvir tanlovi, sarlavha uslubi ham professional etikaga mos bo'lishi shart. Fikr bildirish erkinligi javobgarlikni istisno etmaydi.

4. Faktcheking (ma'lumotni tekshirish). So'nggi yillarda ijtimoiy media orqali tarqalayotgan yolg'on xabarlar jurnalistik sohada "faktcheking" yo'nalishini muhim qilmoqda. Har bir jurnalistning vazifasi — manba ishonchliligini tekshirish va jamoatchilikni xolis axborot bilan ta'minlashdir. Shuningdek, raqamli jurnalistikada sun'iy intellekt va algoritmik axborot oqimlari jurnalist ishiga yangi imkoniyatlar bilan birga, yangi xavflarni ham olib keldi. Axborotning filtrlanishi, auditoriya psixologiyasiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari jurnalistdan yuqori tahliliy yondashuvni talab qiladi.

**Xulosa:** Ijtimoiy tarmoqlar jurnalistika sohasini tubdan o'zgartirdi. Endilikda jurnalist faqat xabar yetkazuvchi emas, balki ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi, raqamli madaniyat targ'ibotchisidir. Ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistik yondashuvning asosiy vazifasi — auditoriyani ishonchli, tekshirilgan va muvozanatli axborot bilan ta'minlash, hamda jamoatchilikni ongli axborot iste'molchisiga aylantirishdir. Shunday ekan, jurnalistlar raqamli kommunikatsiya davrida professional etikani saqlab, faktlarga asoslangan, mas'uliyatli yondashuv bilan faoliyat yuritishlari zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Karimova N. "Zamonaviy jurnalistikada ijtimoiy tarmoqlar roli", Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2022.

To'xtayeva G. "Media madaniyat va axborot iste'moli", Toshkent, 2021.

Abdurahmonov M. "Raqamli jurnalistika: nazariya va amaliyot", Toshkent: O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, 2023.

Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2010.



Boyd, D. & Ellison, N. Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship.  
Journal of Computer-Mediated Communication, 2007.

[www.unesco.org](http://www.unesco.org)

— Social Media and Journalism Ethics (UNESCO Media Freedom Report, 2024).